

Toshkent - Sochi - Toshkent yo'nalishi bo'yicha parvozlar tiklanishi

2022 25 January

Uzbekistan Airways joriy yilning 30-yanvaridan boshlab Toshkent - Sochi -Toshkent yo'nalishi bo'yicha muntazam qatnovlar tiklanishini ma'lum qiladi. Parvozlar haftasiga bir marotaba - yakshanba kunlari amalga oshiriladi.

Mazkur yo'nalish bo'yicha aviachiptalar narxi bir tomonga 1 883 446 so'mdan (bagajsiz) va 2 067 881 so'mdan (bagaj bilan), shuningdek, borish va qaytish bo'yicha aviachiptalar 3 573 113 so'mdan (bagajsiz) va 3 941 982 so'mdan (bagaj bilan) boshlanadi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin. Eslatib o'tamiz, aviakompaniyaning rasmiy sayti orqali aviachipta xarid qilib olayotganda 3% chegirma taqdim etiladi.

Narxlar 24.01.2022 holatiga ko'ra amal qiladi.